

FARZAND TARBIYASIDA YUZAGA KELADIGAN OILAVIY MUAMMOLAR VA  
ULARNING YECHIMIGA PEDAGOGIK YONDASHUV.

**Abduvaliyeva Maftuna G‘ulom qizi.**

*Guliston davlat pedagogika instituti pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada, Farzand tarbiyasida yuzaga keladigan oilaviy muammolar va ularga pedagogik jihatdan yechim topish usuli yotadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Farzand, tarbiya, avlod, ota-ona, oila, pedagogik, falsafiy, psixologik, psixodiagnostik, ijtimoiy, siyosiy.*

**Kirish.** Darhaqiqat, oila -muqaddas dargohdir. Farzand esa, bebaho boylik. Tangri inom etgan bebaho boylikni voyaga yetkazish, kamol toptirish va tarbiyalash ota-onalarning burchi sanaladi. Farzandga tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Oilada muhit qanday bo‘lsa, farzand ham shu muhit ta‘sirida ulg‘ayadi. Shu o‘rinda Rog‘ib Asfihoniyning farzand tarbiyasiga oid shunday jumllarini keltirib o‘tishni joiz topdim. „, Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o‘tkaza borib, batamomlik nuqtasiga yetkaza borishdir.“ Niholni parvarishlab o‘stirguncha qancha ko‘p mehnat qilinsa, farzand tarbiyalashda ham juda katta etibor qaratish lozim. Tarbiya jarayonida oilada yuzaga keladigan muammolar farzand tarbiyasi uchun juda katta ta‘sir ko‘rsatadi. Misol uchun, oilaviy o‘zaro janjallar, kelishmovchiliklar, rashk singari holatlar farzandning ulg‘ayish jarayonida oiladan bezib qolishi, jizzaki, o‘zbilarmon ko‘chadagi oilaga nisbatan nafrat tuyg‘usini yuzaga keltirishi mumkin. Ota-ona yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq bo‘lsa, farzand unda ketayotgan yo‘lovchidir. Zero, Abdulla Avloniy ham shunday jumllarni bejiz keltirib o‘tmagan. „Tug‘ib tashlash bilan bo‘lmas bola, bo‘lg‘ay balo sizga, vujudi tarbiyat topsa bo‘lur ul rahnamo sizga, temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo‘lur Olim, buzilsa xulqi, Luqmon o‘g‘li bo‘lsa, bo‘lishi zolim.“ Yaxshi tarbiya topgan farzand jamiyatda ham o‘zgalardan ajralib turadi. Ota onalar farzandining kelajagini o‘ylab ularni ilk yoshlaridan mehnatga solib chiniqtirib boradilar. To‘g‘ri tarbiyaning eng ta‘sirli, eng samarali usuli ham ota -onaga bog‘liqdir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.**

Ota-onalar va bolalar o‘rtasida tarbiyaga etibor qaratsak, bunda kattalar tanqid qiluvchi va nasihat beruvchi ro‘lini o‘ynasalar, bolalar esa aybdor va tinglovchi rolini o‘ynaydilar. Natijada kattalar o‘zlarini men haqman, to‘g‘ri tarbiya beryapman deb hisoblasalar, bolalar esa o‘zlarini kamsitilgan, barcha narsalardan mahrum qilingan deb hisoblaydilar. Bu esa bola ongiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. R.Mavlonova, O. To‘rayevaning, Pedagogika “kitobida notog‘ri tarbiya ta‘sirida quyidagi holatlar vujudga kelishi mumkin.

Ota -onalar va bola munosabatlarining buzilishi giyohvandlik sababi sifatida;

Ota -onalar tomonidan bolalik davridagi zo‘ravonlik;

Oilada doimiy yolg‘on gapirish. Natijada uyat bolada hukmron tuyg‘uga aylanadi. depersonalizatsiya sodir bo‘ladi, haqiqat hissi yo‘qoladi.

Bolaning atrofdagilardan ajralishi;

Tortinchoqlik, odamlar orasida o‘zini chetga olish;

Jamoadan ajralgan holda yurish, jamoaga qo‘shila olmaslik;

Doim o‘ziga past nazar bilan qarash.

Z. T. Nishanovanning „Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi“ kitobida ota-onalar va bola munosabatlari demokratik tamoyillarda amalga oshadigan oilada bolada o‘zi va ota onasi to‘g‘risida quyidagicha tasavvur shakllanadi. Meni sevishadi va men kerakman, shuning uchun men ham ularni sevaman.” Bunday bola psixologiyasi va xarakterida ustuvor fazilatlar sifatida adekvat o‘zini o‘zi baholash va insonlarga ishonch har qanday yaxshi narsalardan jumladan, ota-onalar bilan samimiy munosabatlar, quvonish, o‘ziga ishonch, xatoliklardan cho‘chimaslik, ayb ish qilib qo‘yganda ham unchalik qayg‘urmaslik, zaruratga qarab iltimoslar qilish va bunda real ko‘mak olishga umidvorlik, ota-onalarning hayotdagi o‘rni va ishonchlarini, umid va istaklari bilan hisoblashish kerakligini keltirish mumkin. oila deb atalmish muqaddas dargohga qadam qo‘ygan ikki yosh nafaqat oilasi uchun balki kelajakdagi farzandi uchun ham qayg‘uruvchi, tarbiyachi bo‘lishi kerak. Nafaqat ota ona farzandni tarbiyalab voyaga yetkazish bilan bir qatorda jamiyat uchun ham kerakli, hissa qo‘shuvchi insonni voyaga yetkazgan hisoblanadi.

### **Muhokama**

Oila muhitining o‘zi ham ayrim holatlarda salbiy manolardagi ijtimoiylashuviga aloqador bo‘lib qolishi mumkin. ota-onalar o‘rtasidagi munosabatning yo‘qligi, oilaviy o‘zaro munosabatlarni mustahkamlash borasida aniq belgilangan axloqiy tamoyillarning mavjud emasligi, yashash sharoitlarining yaxshi emasligi, bolaning to‘laqonli o‘sishi, dars tayyorlashi, jismonan chiniqishi uchun sharoitlar ning yetarli emasligi. Yuqoridagi holatlar ayniqsa globallashuv zamonida oila institutining bola sotsializatsiyasi va ijtimoiy tarbiyasidagi o‘rni nechog‘li sezilarli ekanligini isbotlamoqda deb aytish joizdir.

Oila-tinchlik va jamiyat tayanchidir. Xalqimiz orasida ushbu maqol bejiz aytib o‘tilmagan. Negaki, Oila tinch bo‘lsa, jamiyatda ham rivojlanish bo‘ladi. Bugungi kunda yosh oilalar, oddiygina sabab orqali ajrashib ketishayotganligi ham sir emas albatta. Buning barchasi ikki yoshning sabriga bog‘liq, hayotdagi yengil sinovlarga bardosh bera olmasdan farzandining yetim bo‘lib qolishiga sababchi bo‘lishmoqda. Mana shunaqangi oilada otasiz o‘sgan farzandlarning qanchasining tarbiyasida buzilishlar takrorlanadi. Bunda ota yoki ona alamzada holatda farzandiga qo‘pollik qilishi orqali farzandini o‘zidan bezdirib qo‘yadi. Ana endi aybni kimdan qidirish kerak? degan savol yuzaga keladi. Ota onasining aybi uchun bir umr kamsitilgan farzandmi, yoki sabrsizlik oqibatida shoshqaloqlik qilib ajrashgan ota-onami? Avvalo

inson aybni o'zidan qidirishi kerak. Oila deb atalmish muqaddas dargohga qadam qo'ydimi, uning og'ir yengiliga ham ko'nishi, sabr qilishi orqali o'zida yaxshi va hal hayotni barpo etishi mumkin. Yana bir misolni keltirib o'taman, Ota -onalar avvalo ota-onalik sharafiga ham ruhan ham jismonan tayyor bo'lishi kerak. Turli orzu havaslarga berilib, farzandiga e'tiborsiz bo'lsa, yoki farzandini haddan tashqari erkalatib yuborsa, farzandini jamiyatdan birozgina ajratgan bo'ladi. Negaki, agar bola hech qanday qiyinchilik ko'rmay katta bo'lgan bo'lsa, oldidagi oddiygina sinovlarga ham bardoshsiz bo'lib qoladi. Atrofdagilarni tushunmaydi, hamma narsani pul bilan hal qilsa bo'ladi deb o'ylaydi. Afsuski, bundaylar o'z nafsining qurboniga aylanib qolishi hech gap emas.

### **Natijalar**

Oila inson hayotida hal qiluvchi jarayondir. Aynan oilaviy munosabatlarda va muloqotda inson ehtiyojlari amalga oshiriladi ya'ni malum bir guruhga mansublik tuyg'usini beruvchi insoniy aloqalarga ehtiyoj, o'zini o'zi tasdiqlash zarurati yuzaga keladi. Maqolada ota-onalar va bolalar munosabatlarining falsafiy qarashlariga oid ma'lumotlar berib o'tildi. Shuni aytish joizki, ta'lim va tarbiya jarayonida ota-onalar bilan bor qatorda o'qituvchining ham o'z o'rnini bor deb aytish mumkin. Oila to'la to'kis bo'lib, Farzandni tarbiyalashda birdek harakat qilinsa yani har tomonlama bolani ota ona qo'llab quvvatlasa, nafaqat ta'lim jarayonida balki hayotda ham to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi yo'ldi yulduz bo'lsa, kelajak uchun yetuk insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda xizmat qilgan insonlar bo'lishadi. Oilada voyaga yetayotgan yosh avlodda ota-onaga, Vatanga mehr muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, ma'naviy axloqiy, milliy madaniy qadriyatlarni ular ongi va tafakkuriga singdirishda ta'sirchan uslublardan foydalanish, oila, mahalla va ta'lim muassasalarining har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashdagi ro'lini, oilaviy tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyatini yanada oshirish zarur.

### **Xulosa.**

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, Farzand tarbiyasida yetakchi rolni ota -ona o'ynaydi. Talim muassasalarida ustozlar qo'lida tarbiyalanadi. Tarbiya uzluksiz jarayon sanaladi. Shunday ekan bolaga tarbiya berish jarayonida hech qanday kamchiliklarga yo'l qo'yilmasa, jamiyat uchun foydasi tegadigan yoshlarni yetkazib bergan bo'lamiz, zero, bilimli, tarbiyali, aql salohiyati kuchli yoshlar yurt tayanchidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

Norposhshaxon Vohidova, Farag'otxon Mirzayeva "Ijtimoiy Pedagogika". Toshkent-2021.

R. Mavlonova. K. Xoliqberdiyeva. O. To'rayeva. "Pedagogika". Toshkent "O'qituvchi"-2001.

Ergash G'oziyev "Umumiy Psixologiya" Toshkent-2007

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” Toshkent-2011.

Kaykovus “Qobusnoma” -Toshkent Matbaa Uyi-2011.

Z. Nishanova, G. K. Alimova, A. G‘. Turg‘unboyeva. M. X. Asranboyeva. “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi”. Toshkent-2017.

Shavkat Mirziyoyev Miromonovich, “Buyuk Kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent-2017.